




**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING  
SANOAT ISHLAB CHIQRISHI  
2025- YIL YANVAR-FEVRAL**



**DASTLABKI MA'LUMOT**



**Tel.: 61-222-75-87  
[www.qrstat.uz](http://www.qrstat.uz)**

## Qoraqalpog'iston Respublikasi sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

**Sanoat** bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025- yilning yanvar-fevral oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasi korxonalari tomonidan 3791,8 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 100,2 % ni tashkil etdi.

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.




## Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 3102,6 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 81,8 % ni tashkil etdi.



Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-konsanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining – 5,2 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 3,0 % ga hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – 4,2 % ga o'sishi kuzatildi.

Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 16,7 % ga kamayish kuzatildi.





### Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

**Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash** – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (ko'mir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni o'z ichiga oladi.


Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalari tomonidan 2025- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 41,3 mlrd so'm yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 1,1 % ga to'g'ri keldi.

*Sanoat ishlab chiqarishi hajmi, yanvar-fevral, mlrd so'mda*



*Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi*



*Sanoat ishlab chiqarishi FHI, yanvar-fevral, % da*



2 294,9

**Yanvar-fevral oylarida yirik sanoat korxonalari tomonidan  
ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**  
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da\*)

**Ohaktosh**



\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

**Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi  
sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi**

Sanoat mahsulotlari	2024- yil yanvar-fevral*	2025- yil yanvar-fevral
Ohaktosh, ming t.	29,3	24,4
Gaz kondensati, ming t.	9,4	7,1
Tabiiy gaz, mln. kub.m	153,8	135,2


\* 2024-yil yanvar-fevral oylari uchun ishlab chiqarish xajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

## Ishlab chiqaradigan sanoat


**Ishlab chiqaradigan sanoat** bu – tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma’lum turi uchun birdan-bir to’liq me’zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o’z ichiga oladi.

2025- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3102,6 mlrd so’mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 81,8 % ni tashkil etdi.


*Sanoat ishlab chiqarishi hajmi, yanvar-fevral, mlrd so’mda*



*Ishlab chiqaradigan sanoatning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi*




*Sanoat ishlab chiqarishi FHI, yanvar-fevral, % da*






**Yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlar**  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\*)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2024- yilning yanvar-fevral oylarida 0,05 %), o'rta-yuqori texnologiyali –38,7 % (52,4 %), o'rta-quyi texnologiyali – 8,3 % (3,9 %), quyi texnologiyali 52,9 % (43,6 %) ni tashkil etgan.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 39,4 % (2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 83,0 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 25,7 % (2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 123,4 %) ga, oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 23,8 % (2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 106,6 %) to'g'ri keldi.

\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlar (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\*)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yog'och va po'kak buyumlar, pohlol va to'qish uchun materiallardan buyumlar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari, mebellar ishlab chiqarish – 3,1 % (2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 204,2 %) ni tashkil etdi.



\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

### Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2025-yilning yanvar-fevral oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida 1,7 ming tonna o'simlik yog'i (2024-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 45,3 % ga ko'paygan), 9,2 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (34,4 % ga ko'paygan), 113,2 ming tonna portlandsement (5,9 % ga ko'paygan), 39,4 ming tonna dinatriy karbonati (0,6 % ga ko'paygan), 2,9 ming tonna kalava ip (15,7 % ga kamaygan), 567,2 ming litr aroq (16,1 % ga kamaygan), 0,7 ming tonna o'simliklardan olingan sharbat va ekstraktlar (31,5 % ga kamaygan) hamda 3,5 ming tonna paxta tolasi (66,6 % ga kamaygan) shlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2024- yil yanvar-fevral*	2025- yil yanvar-fevral
Aroq, ming litr 100 % li spirt	676,4	567,2
O'simlik yog'i, (tozalangan), tonna	1186,1	1723,5
Portlandsement, tonna	113189,9	106870,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna	6836,1	9190,0
Paxta tolasi, tonna	10581,2	3531,0


\* 2024-yil yanvar-fevral oylari uchun ishlab chiqarish xajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan



### Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

**Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish** – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2025- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 38,7 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 18,3 % ga kamaydi hamda ishlab chiqarish hajmi 1200,3 mlrd so‘mni tashkil etgan.



### Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

**Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish** – minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ishlab chiqarish turlarini o‘z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga o‘rnatiladigan qoplamalar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xomashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2025- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,7 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 27,5 % ga o‘sdi va ishlab chiqarish hajmi 145,8 mlrd so‘mga to‘g‘ri keldi.



## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

**Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish** – yeyiladigan qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o‘z ichiga oladi.


2025- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 21,4 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 102,5 % va ishlab chiqarish hajmi 663,8 mlrd so‘mga to‘g‘ri keldi.



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

**Ichimliklar ishlab chiqarish** – spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali; pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2025- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,4 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 147,2 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 74,2 mlrd so‘mga to‘g‘ri keldi.



## To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

**To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish** – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2025- yilning yanvar-fevral oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 23,2 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 12,1 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 720,7 mlrd so'mga to'g'ri keldi.



## Kiyim ishlab chiqarish

**Kiyim ishlab chiqarish** – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2025- yilning yanvar-fevral oylarida kiyim ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,5 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 116,8 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 77,1 mlrd so'mga to'g'ri keldi.



## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

**Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish** – rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o‘z ichiga oladi. Lekin bu bo‘limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.


2025- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,7 % ni, fizik hajm indeksi 146,1 % ni tashkil qildi hamda ishlab chiqarish hajmida 22,2 mlrd so‘m kuzatildi.



## Mebel ishlab chiqarish

**Mebel ishlab chiqarish** – korxonalar hamda muassasalar, oshxonalar mebellarini ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.

2025- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi mebel ishlab chiqarishning ulushi 2,5 % ni, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 209,9 % ni tashkil etdi hamda ishlab chiqarish hajmi 76,4 mlrd so‘m ekani kuzatildi.




## Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash** – elektr energiya-sini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 629,0 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 16,6 % ini) tashkil etgan.


*Sanoat ishlab chiqarishi hajmi, yanvar-fevral, mlrd so'mda*



299,1

8834,2


*Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi*



*Sanoat ishlab chiqarishi FHI, yanvar-fevral, % da*

612,3

2 495,9




**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonlari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi**

<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>2024- yil yanvar-fevral*</i>	<i>2025- yil yanvar-fevral</i>
<b>Elektrenergiya, mln.kVt.s</b>	1051,1	850,5
<b>Issiqlik energiyasi, ming gkal</b>	16,3	14,4
<b>Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln so'm</b>	43436,6	44685,9

\* 2024-yil yanvar-fevral oylari uchun ishlab chiqarish xajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

**Elektrenergiya va issiqlik energiyasi ishlab chiqarish**  
(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\*)

2025- yilning yanvar-fevral oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 80,9 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 88,7 % ni tashkil etdi.



\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra





## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 18,9 mlrd so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % iga) to'g'ri keldi.

*Sanoat ishlab chiqarishi hajmi, yanvar-fevral, mlrd so'mda*



*Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi*

*Sanoat ishlab chiqarishi FHI, yanvar-fevral, % da*



mln so'mda

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-fevral*	2025-yil yanvar-fevral
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln so'm	1406,7	1476,7
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar mln so'm	9997,9	12519,5
Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar mln so'm	1995,7	2715,3

\* 2024-yil yanvar-fevral oylari uchun ishlab chiqarish xajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

### Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish va suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\*)

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha 25,2 % ga, xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlarda 36,1 % ga hamda oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 5,0 % ga ko'paydi.



Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar





Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar

\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1354,8 mlrd soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 35,7 % ni tashkil etdi. 2024- yilning yanvar-fevral oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 21,6 % ni tashkil etgan.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi, yanvar-fevral, mlrd soʻmda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi

Jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi, yanvar-fevral, % da

